

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI**

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2025-2/2
Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2025

Bosh muharrir:*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.***Bosh muharrir o‘rinbosari:***Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.***Tahrir hayati:**

<i>Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.</i> <i>Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.</i> <i>Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.</i> <i>Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.</i> <i>Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.</i> <i>Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.</i> <i>Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.</i> <i>Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots.</i> <i>Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.</i> <i>Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.</i> <i>Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.</i> <i>Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.</i> <i>Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.</i> <i>Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.</i> <i>Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.</i> <i>Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.</i> <i>Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.</i> <i>Jumaniyozov Otaboy, f.f.d., prof.</i> <i>Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.</i> <i>Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.</i> <i>Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.</i> <i>Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.</i> <i>Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.</i> <i>Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc</i> <i>Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.</i> <i>Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.</i> <i>Qutliyev Uchqun Otaboyevich, f-m.f.d., prof.</i> <i>Lamers Jon, q/x.f.d., prof.</i> <i>Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.</i> <i>Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.</i> <i>Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.</i> <i>Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.</i> <i>Masharipova Feruza Jumanazarovna, PhD</i>	<i>Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.</i> <i>Najmeddinov Axmad Raxmatovich PhD, dotsent</i> <i>Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.</i> <i>Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.</i> <i>Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.</i> <i>Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.</i> <i>Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.</i> <i>Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.</i> <i>Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.</i> <i>Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.</i> <i>Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD</i> <i>Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.</i> <i>Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.</i> <i>Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.</i> <i>Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.</i> <i>Safarov Alisher Karimdjaniyevich, b.f.d., dos.</i> <i>Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.</i> <i>Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.</i> <i>Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.</i> <i>Tojibayev Komiljon Sharobiddinovich, b.f.d., akad.</i> <i>Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.</i> <i>Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.</i> <i>Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.</i> <i>Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.</i> <i>Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.</i> <i>Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.</i> <i>O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.</i> <i>O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.</i> <i>Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.</i> <i>Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.</i> <i>Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.</i> <i>Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD</i> <i>Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent</i>
--	---

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№2/2 (123), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2025 y. – 219 b. – Bosma nashrning elektron varianti- <https://www.mamun.uz/bulletin>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

Abdikarimova Z.B. Marketingning asosiy tushunchalari va qishloq xo'jaligi sektoridagi o'rni	5
Aliyev X.R. O'zbekistonda 2024-yil kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan ishlar: samaradorlik, muammolar va istiqbollar	7
Axmedova Sh.K. O'zbekiston Respublikasi neft va gaz korxonasi ishlab chiqarish jarayonlariga sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilish	10
Babajanova D.A. Mintaqaviy klasterlar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari	12
Baxshilloev J.Sh. Ziyorat maskanlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning roli: Xorij tajribasi va imkoniyatlar	16
Baymirzaev D.N., Davlatova Sh.B. O'zbekistonda turizm va mehmondo'stlikni rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlari	19
Chorshanbayev U. Iqtisodiy savodxonlikni oshirishda onlayn xizmatlarning roli	23
Doliyev Sh.Q. Global energiya iste'moli va samaradorlik tendensiyalarining ekonometrik tahlili	27
Doniyev Sh.O'. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va imkoniyatlari	32
Ermetova I.T. O'zbekistonda elektron hukumat: mavjud imkoniyatlar, mohiyati va uning modellari	35
Ibragimova M.I., Asadova Sh.O., Khamrokulova R.F. The contribution of educational tourism to sustainable rural development in Uzbekistan	38
Ishchanov A.R. Ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirishning xorijiy tajribalari va xususiyatlari	41
Karimboyev D.D. The role of passenger transport and its regional economic impact in the sustainable development of transport networks in Khorezm region	50
Kistaubayev S.U. Mamlakatimizda maishiy chiqindilarni bartaraf etishni takomillashtirish masalalari	53
Ne'matov N.I. Raqamli texnologiyalarning iqtisodiyot uchun ahamiyati: servis korxonalarini rivojlantirish misolida	55
Odilov X.M. Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning ekologik jihatlari	58
Rustamov A.A. Agroturizmni rivojlantirishning hududiy xususiyatlari	61
Rustamova Z.R. Prospects for the development of gastronomic tourism in Uzbekistan	64
Ruziev Z., Ikromov X. Investment potential of the Republic of Uzbekistan: priorities and ways of its development	69
Ruzmetov Sh.B. Mintaqada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda sanoat tarmoqlarini o'rni	71
Salayev S.K., Vaisov D.I., San'atbekov A.S. Tibbiy xizmatlar bozorida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi tahlili	76
Shomirzayeva Q.B. Xususiy telekanallarda marketing strategiyasining ahamiyati	81
Sultanov S. Improving the organizational and economic mechanism for enhancing competitiveness in the transport services market	83
Isayeva N.X. Tashkilotni boshqarishda motivatsion omillar samaradorligi	88
Vaisov D.I. Tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligini ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari	91
Xabibulloxoji M.A. Mintaqada ekologik va rekreatsion turizmni rivojlantirish omillari	101
Xodjaraxmanova N. Insurance in the digital age: trends and challenges	104
Xo'jamqulov B. Qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar	109
Xasanova Yu.M. Investitsion muhitni iqtisodiy rivojlanishga ta'siri	113
Ахмедов Ф.Р. Рақамлаштириш - маҳаллий давлат ҳокимияти органларида қарор қабул қилиш самарадорлигини ошириш йўналиши сифатида	116
Ахунова М.Х. Значение рыночного риска для финансовой организации	120
Ибадуллаев Д.И. Худудларни ривожлантиришда инвестиция салоҳиятини оширишнинг илмий-услубий асослари	123

UO'K 379.85

AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI

A.A.Rustamov, mustaqil tadqiqotchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqola agroturizmni rivojlantirishning hududiy xususiyatlarini tahlil qiladi. Agroturizm qishloq hududlarining iqtisodiy o'sishiga hissa qo'shib, mahalliy aholini qo'llab-quvvatlash va qishloq xo'jaligi bilan bog'liq turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada agroturizm orqali qishloq joylarda turizm salohiyatini oshirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'llari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, agroturizmni hududiy xususiyatlarga moslashtirish va mahalliy aholining bu jarayonda faol ishtirok etishi muhim ekani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Agroturizm, hududiy rivojlanish, qishloq turizmi, iqtisodiy o'sish, mahalliy aholi, turizm infratuzilmasi, qishloq xo'jaligi, ekologik barqarorlik.

Аннотация. В данной статье анализируются региональные особенности развития агротуризма. Агротуризм играет важную роль в содействии экономическому росту сельских районов, поддержке местного населения и развитии туристической инфраструктуры, связанной с сельским хозяйством. В статье рассматриваются пути повышения туристического потенциала и обеспечения экологической устойчивости в сельских местностях через агротуризм. Кроме того, подчеркивается важность адаптации агротуризма к региональным особенностям и активного участия местного населения в этом процессе.


Ключевые слова: Агротуризм, региональное развитие, сельский туризм, экономический рост, местное население, туристическая инфраструктура, сельское хозяйство, экологическая устойчивость.

Abstract. This article analyzes the regional characteristics of agrotourism development. Agrotourism plays a significant role in contributing to the economic growth of rural areas, supporting local communities, and enhancing tourism infrastructure related to agriculture. The article examines ways to increase tourism potential and ensure environmental sustainability in rural areas through agrotourism. Additionally, it emphasizes the importance of adapting agrotourism to regional characteristics and encouraging active participation of local communities in this process.

Key words: Agrotourism, regional development, rural tourism, economic growth, local community, tourism infrastructure, agriculture, environmental sustainability.

O'zbekiston uchun agroturizm yangi yo'nalish bo'lib, uning tashkil etilishi va rivojlanishi zamonaviy jahon miqyosidagi jarayonlar, birinchi navbatda, globallashuv va urbanizatsiya bilan bog'liqdir. Butunjahon turistik tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, agroturizm dunyo bo'ylab turizmni rivojlantirishning beshta asosiy strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib, turli xil dam olish turlarini o'zida mujassam etgan va xorijiy mamlakatlarda tez rivojlanayotgan yo'nalish hisoblanadi. Agroturizmni turistik mahsulot sifatida baholash uchun diqqatga sazovor joylar, turarjoy (qishloq uyi), qishloq taomi, madaniy hordiq chiqarish muhim ahamiyatga ega. Agroturizmga bo'lgan talabni baholash va hosil qilish uchun turistlar qishloq joylarda nimani qidirayotganligini tushunish kerak. Agroturizm keng tushuncha bo'lib, uning barcha xususiyatlarini o'zida mujassam etgan Butunjahon turistik tashkiloti tomonidan taklif etilgan universal modelni tavsiya etishimiz mumkin (1-rasm).

Shuni yodda tutish kerakki, yuqorida ko'rsatilgan barcha tarkibiy qismlarning “manfaatlar muvozanati” ta'minlangandagina agroturizmni samarali rivojlantirish mumkin. Agroturizmning barcha elementlari uyg'unligini ta'minlash uchun mahalliy aholi va turistlar manfaatlarini hisobga olish hamda atrof-muhitga g'amxo'rlik qilish lozimdir. Bu uchta komponentning muvozanat holati qishloq hududlarining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy tamoyillarning amalga oshirilishini ta'minlaydi. Ushbu asosiy tamoyillarga quyidagilarni keltirishimiz mumkin: tabiatni muhofaza qilish tamoyillari, ijtimoiy tamoyillar, iqtisodiy tamoyillar, madaniy-tarixiy tamoyillar.



1-rasm. Butunjahon turistik tashkilotining agroturizm universal modeli

Tabiatni muhofaza qilish tamoyillari: hududning tabiiy xilma-xilligini hurmat qilish va asrash, atrof-muhitni vayronagarchiliklardan himoya qilish, qishloq hududida ruxsat etilgan faoliyat turlarini aniqlash va nazorat qilish, hududning o'simlik va hayvonot dunyosiga turizmning ta'sirini nazorat qilish.

Ijtimoiy barqarorlik tamoyillari: ijtimoiy vaziyatni saqlab qolish; madaniy xilma-xillik va mahalliy aholining turmush tarzini saqlash va himoya qilish va daxlsizligini kafolatlaydigan turizm turi, ko'lami va rivojlanish sur'atlarini ta'minlash; ijtimoiy ziddiyatlarni kuchaytiradigan turizm shakllariga qarshi turish; agroturizmni hududning an'anaviy iqtisodiy faoliyat turlari bilan bog'lab, mahalliy aholi bilan o'zaro tushunishni ta'minlaydigan turizmning turini, miqyosini va o'sish sur'atini tanlash; mahalliy tovarlarni ishlab chiqarish va sotishni rivojlantirishga ko'maklashish.

Iqtisodiy tamoyillar: aholini daromad olishga hissa qo'shish, yangi ish o'rinlari yaratish, shaharga migratsiyani cheklash; hududdagi iqtisodiy xilma-xillikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash; an'anaviy yashash joylarini buzilishining / yo'q qilinishining oldini olish.

Tarixiy-madaniy tamoyillar: mahalliy meros va madaniy xilma-xillikni hurmat qilish; mahalliy madaniyat, urf-odatlarini ommalashtirish uchun foydali bo'lgan turizmni qo'llab-quvvatlash; hududning noyob madaniy xususiyatlarini keng targ'ib qilish; sayyohlar ehtiyojini qondirish; arzon narxda qulay turarjoy; mahalliy taom; manzarali landshaftlar, mahalliy diqqatga sazovor joylar, tabiat; dam olishning faol turlari; xalq hunarmandchiligi mahsulotlari / esdalik sovg'alarini sotib olish; sayohat xavfsizligi; aholining do'stona munosabati.

Agroturizmni rivojlantirishni rejalashtirishda ushbu tamoyil-lardan foydalanish juda muhimdir. Bu tamoyillar agroturizmning barcha sub'ektlari, ya'ni xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, turistik agentliklar, turistlar, davlat va mahalliy hokimiyat idoralari faoliyatiga asoslanishi kerak. Bu esa o'z navbatida agroturizmning samarali va uyg'un rivojlanishini ta'minlashi mumkin. Turizm ko'p hollarda mavsumiy hodisadir. Asosan, turistik faoliyatning cho'qqisi yoz paytida, qishda esa pasayish kuzatiladi. Agroturizmni rivojlantirish qishloq xo'jaligidagi mavsumiylikni yumshatish ehtiyojini, shuningdek, asosiy faoliyatni Qo'shimcha moliyalashtirish manbalari zaruriyatini belgilaydi.

Agroturizm qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq yo'nalishdir. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishsiz agroturizmni tasavvur etib bo'lmaydi, chunki turistning maqsadi qishloq hayoti, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyati bilan tanishishdir.

Agroturizmning shakllanishi va rivojlanishi, bir tomondan, mamlakat ichidagi turistik oqimlar darajasini oshirishga, ikkinchi tomondan, ekologik xavfsizlikni ta'minlash doirasida hududning qishloq resurslaridan samarali foydalanishga imkon beradi.

Agroturizmning rivojlanishiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadigan omillarni bir nechta katta guruhlarga bo'lish mumkin: ijtimoiy-iqtisodiy (tashqi va ichki); ma'muriy, tabiiy-iqtisodiy; turistik motivatsiya.

Agroturizmni rivojlantirish modellari fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari, qishloq mehmonxonalari va boshqalar hududiy agroturistik komplekslari tomonidan taqdim etilishi mumkin bo'lgan turistlarni joylashtirish vositalari yordamida aniqlanadi. Undan tashqari, agroturizmni rivojlantirish modellari turarjoy, ovqatlanish, dam olish joylariga turistlarni yetkazib berish, dam olish tadbirlari majmuasi tizimi kiradi.

Agroturizmning mavjud shakllari bilan bir qatorda yana-da yangi progressiv shakllarini asoslash maqsadga muvofiqdir. Masalan, shaxsiy tomorqa tipidagi xo'jaliklarning mavjudligi (katta yer (usadba) tomorqalarini tiklash yoki yangilarini qurish) agroturizmni rivojlantirishning ikkinchi bosqichini belgilaydi. Shu jumladan, qishloq joylarda joylashgan diniy va madaniy yodgorliklar yo'nalishlarini va shu paytgacha yirik chorvachilikni rivojlantirishga bilvosita tegishli bo'lgan majmualarni o'z ichiga olgan, hududiy ahamiyatga ega turistik markazlarni rekonstruksiya qilish va tiklash lozimdir. Sobiq ittifoq davrida shunday vaziyat bo'ldiki, yirik aholi punktlarida chorvachilik majmualari barpo etildi.

Madaniy - tarixiy markazlarni tiklashda, birinchi navbatda, turistlarni oziq- ovqat bilan ta'minlashdan tashqari tovar mahsulotlari ishlab chiqaradigan qishloq xo'jaligi korxonalarini qayta tiklash kerak bo'ladi. Bu holda turistlarni joylashtirish vositalari turli xil bo'lishi mumkin: shaxsiy tomorqa xo'jaliklardan boshlab mehmonxona majmualarigacha. Tarixiy va madaniy yodgorliklarni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan uyg'unlashtirish multiplikativ samarani ta'minlaydi. Va nihoyat, agroturizmni rivojlantirishning III bosqichi hududiy agroturistik kompleks (ATK) ni shakllantirish bilan bog'liqdir. Agroturizmni tashkil etishning ushbu yangi shakli ma'muriy tuman hududida qishloq xo'jaligi va turizm korxonalarini joylashtirishni ta'minlaydi. Hududiyagroturistik komplekslar nafaqat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish, balki milliy madaniyatni tiklash, qishloq infratuzilmasini yangilash, qishloq aholisi uchun yangi shakldagi obraz yaratishni nazarda tutadi (1-jadval).

1-jadval

Agroturizmning rivojlanish bosqichlari

Ko'rsatkichlar	Rivojlanish bosqichlari		
	I	II	III
Turarjoy	Fermer bilan bir uyda	Alohida uyda, binolarda	Agrokomplekslarda
Ovqatlanish	Yarim pansion	Yarim pansion, pansion*	Faqat pansion
Dam olish turi	Otda sayr qilish, baliq ovlash, ovchilik	Ekskursion, ekologik, etnik turlar	Davolash-sog'lomlashtirish, ilmiy turlar
Agroturizmning rivojlanish modellari	Dehqon xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi korxonalari (kooperativlar)	Turistik qishloq, tomorqa (usadba) komplekslari, agrotur markazlar	Hududiy agroturistik komplekslar

*(pansion-turuvchilarni haq badaliga oziq-ovqat va kiyim bosh bilan ta'minlaydigan kichik mehmonxona)

Agroturizm qishloq hududlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu turizm turi mahalliy aholini daromad bilan ta'minlash, ish o'rinlari yaratish, qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash imkoniyatini beradi. Agroturizmni rivojlantirishda hududiy xususiyatlarni hisobga olish zarur, chunki har bir mintaqaning tabiiy, iqlimiy, madaniy va iqtisodiy o'ziga xosliklari bor.

Maqolada agroturizmning hududiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, jumladan, tabiiy resurslar, mahalliy an'analar, infratuzilma va aholining bu jarayonda faol ishtirok etishi kabi jihatlar yoritilgan. Hududiy xususiyatlarga moslashtirilgan agroturizm modeli mintaqaning turizm salohiyatini oshirishga va uning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, agroturizm qishloq hududlarini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib, mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilash, qishloq xo'jaligi va turizmni birlashtirish, ekologik muvozanatni saqlashga yordam beradi. Shu sababli, davlat va xususiy sektorning hamkorligi, shuningdek, mahalliy aholi ishtiroki orqali agroturizmni rivojlantirish mintaqalar uchun katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Briedenhann, J., & Wickens, E. (2004). Tourism routes as a tool for the economic development of rural areas - vibrant hope or impossible dream? *Tourism Management*, 25(1), 71-79.

2. Phillip, S., Hunter, C., & Blackstock, K. (2010). A typology for defining agritourism. *Tourism Management*, 31(6), 754-758.
3. Tew, C., & Barbieri, C. (2012). The perceived benefits of agritourism: The provider's perspective. *Tourism Management*, 33(1), 215-224.
4. OECD (2009). *The impact of culture on tourism*. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development.
5. Roberts, L., & Hall, D. (2001). *Rural Tourism and Recreation: Principles to Practice*. Wallingford: CABI Publishing.
6. Busby, G., & Rendle, S. (2000). The transition from tourism on farms to farm tourism. *Tourism Management*, 21(6), 635-642.
7. Barbieri, C., & Mahoney, E. (2009). Why is agritourism successful? Understanding visitors' motivations towards agritourism. *Journal of Travel Research*, 48(3), 294-307.
8. Sharpley, R., & Vass, A. (2006). Tourism, farming and diversification: An attitudinal study. *Tourism Management*, 27(5), 1040-1052.
9. Ilkhamov, A., & Kadyrov, D. (2020). Agrotourism development in rural areas: Prospects and challenges. *Economic and Social Research Journal*, 3(2), 45-53.
10. Gil Arroyo, C., Barbieri, C., & Rozier Rich, S. (2013). Defining agritourism: A comparative analysis of stakeholders' perceptions in Missouri and North Carolina. *Tourism Management*, 37, 39-47.
11. Iorio, M., & Corsale, A. (2010). Rural tourism and livelihood strategies in Romania. *Journal of Rural Studies*, 26(2), 152-162.
12. Williams, N., & Ferguson, M. (2005). Agricultural tourism as economic opportunity for farmers. *Journal of Sustainable Agriculture*, 27(1), 59-72.
13. Rustamov, A. A. (2021). Agroturizmni rivojlantirishda hududiy xususiyatlarning roli. *O'zbekiston Turizm Jurnali*, 2(5), 20-27.
14. UNWTO (2020). *Rural Tourism: Harnessing the power of tourism for rural development*. Madrid: United Nations World Tourism Organization.
15. Zhao, W., & Getz, D. (2008). Rural tourism destinations: A network perspective. *Annals of Tourism Research*, 35(4), 1012-1032.
16. Hasanov, Sh. & Karimov, M. (2019). Agroturizmning iqtisodiy samaradorligi: O'zbekiston tajribasi. *Qishloq Xo'jaligi va Turizm Tadqiqotlari Jurnali*, 1(4), 55-62.
17. Hall, C. M., Roberts, L., & Mitchell, R. (2003). *New Directions in Rural Tourism*. Aldershot: Ashgate Publishing.
18. Hjalager, A. M. (1996). Agricultural diversification into tourism: Evidence of a European community development programme. *Tourism Management*, 17(2), 103-111.
19. Rustamovna T. H., Anvarovich K. A. The role of small businesses to improve the export potential //Academy. – 2016. – №. 12 (15). – C. 21-23.
20. Rustamovna T. H., Anvarovich K. A. The ways to increase the export potential of the farms //International Journal of innovative technologies in economy. – 2016. – №. 4 (6). – C. 27-31.
21. Hulkar T., Aziz K. An analysis of export and import operations in bukhara region //World science. – 2016. – T. 4. – №. 9 (13). – C. 38-40.
22. Rustamovna T. H., Anvarovich K. A. The analysis of foreign economic relations of Uzbekistan //Вестник науки и образования. – 2016. – №. 12 (24). – C. 34-37.

UDC 338.467.6

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GASTRONOMIC TOURISM IN UZBEKISTAN

**Z.R.Rustamova, Assistant Professor, Silk Road International University of Tourism and Cultural
Heritage, Samarkand**

Annotatsiya. Maqola gastronomik turizm asoslarini va uning kelib chiqish tarixini o'rganishga bag'ishlangan. Gastronomik turizm yoki pazandachilik turizmi turizmning asosiy turlaridan biri bo'lib, uning asosiy maqsadi sayyohlarning sayohati davomida u yoki bu davlatning milliy taomlari va taom madaniyati bilan tanishishlaridir. Gastronomik turizmda sayyoh, eng avvalo, madaniyatning ajralmas qismi bo'lgan milliy va an'anaviy taomlarni, tayyorlash jarayonini, xizmat ko'rsatish usullarini, ovqatlanish odatlari va pozitsiyalarini, shuningdek, tarixi, iqtisodiyoti, davlat siyosatini ko'radi va o'rganadi. va u sayohat qilayotgan mamlakatning e'tiqodlari. Bugungi kunda turizmning rivojlanayotgan turlaridan biri bo'lgan gastronomik turizmning O'zbekiston turizmidagi ahamiyati, o'zbek milliy taomlari, madaniyati, an'ana va urf-odatlarini, milliy taomlar festivallarini xalqaro brend sifatida ko'rsatish va sayyohlarni jalb etish masalalari yoritilgan.[1]

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI

№2/2 (123)
2025 y., fevral

O‘zbekcha matn muharriri:
Ruscha matn muharriri:
Inglizcha matn muharriri:
Musahhih:
Texnik muharrir:

Ro‘zmetov Dilshod
Hasanov Shodlik
Xamrayev Nurbek, Lamers Jon
O‘rozboyev Abdulla
Shomurodov Jur‘at

“Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi” O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi Xorazm viloyat boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tgan. Guvoxnoma № 13-023

Terishga berildi: 06.02.2025
Bosishga ruxsat etildi: 14.02.2025.
Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8. Adadi 70.
Hajmi 13.4 b.t. Buyurtma: № 2-T

Xorazm Ma’mun akademiyasi noshirlik bo‘limi
220900, Xiva, Markaz-1
Tel/faks: (0 362) 226-20-28
E-mail: mamun-axborotnoma@academy.uz
xma_axborotnomasi@mail.ru



(+998) 97-458-28-18